

Shikorov Tolib Tavakalovich

Annotatsiya: *Mazkur maqolada - zamonaviy ta’lim - yuksak malakali mutaxassislarni bozor iqtisodiyoti talablarini inobatga olib tayyorlashni, talabalarning tanlagan ixtisosliklari bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirishni, mustaqil ravishda amaliy faoliyatga o’rgatishni ta’minlashi haqida so’z boradi.*

Kalit so'zlar: *ta'limda axborot texnologiyalari, muammo, konfliktlar, konfliktologiya, muammoli ta'lim, talabalar, kompyuterlashtirish; elektron ta'lim, electron tizim, maxsus dastur, o'qituvchilar, pedagogika texnologiyalar*

KIRISH

2020 yil 24 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida oliy ta’lim tizimini yanada rivojlanib ravnaq topishi uchun quyidagi rejalashtirilgan vazifalar to’g’risida fir yuritilgan edi: Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo’nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo’la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo’nalishini rivojlantirish tarafdorimiz. Ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish lozim.

“Biz Yangi O‘zbekistonni bunyod etishda sog‘lom va barkamol yoshlarimizni hal qiluvchi kuch deb bilamiz. Shu maqsadda ularning bilim, madaniyat, san’at va sport bo’yicha salohiyatini ro’yobga chiqarish, tadbirkorlik faoliyatini rag’batlantirish borasida ham yangi tizim yaratamiz” deya muhtaram Prizidentimiz ta’lim-tarbiya sohasining mamlakat ravnaqi uchun naqadar buyuk omilligini e’tirof etadilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muammoli o’qitish, ta’lim berishning eng samarali usullaridan bo’lib, u asosan ilmiy bilimlar asosida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi. Muammoli vaziyatlar kiritilib, an’anaviy bayon etish o’quv materialining eng optimal tarkibi hisoblanadi.

Muammoli ta’lim – bu o’qituvchining talabalarni ketma-ket muammoli vaziyatlar tizimini oldindan o’ylab qo’yilgan yaratish yo’li bilan muammoli o’rgatish shartlarini ta’minlash va ularni talabalar tomonidan echish jarayonini boshqarish bo’yicha faoliyatidir.

Muammoli o’rganish – ta’lim oluvchilarning bilimlar va muammoli vaziyatni tahlil qilish, muammoni ifodalash hamda ularni echish faoliyat usullarini – taxminlarni o’rtaga tashlash, asoslash va farazni isbotlash orqali o’zlashtirishi bo’yicha ijodiy o’quv faoliyatini maxsus tuzilishidir.

Muammoli O‘qitish Texnologiyasining Mohiyati

Muammoli o'qitish texnologiyasi o'quvchilarga muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim metodidir. Bu texnologiya o'quvchilarning mustaqil fikrlashini va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Muammoli o'qitish jarayonida o'quvchilar muammolarni tahlil qilish, yechimlarni izlash, tadqiqotlar o'tkazish va xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Asosiy Prinsiplari

Faollik va Mustaqillik: O'quvchilar faol ishtirok etishi va mustaqil fikrlashi muhimdir. Ular muammolarni hal qilishda mustaqil ravishda qarorlar qabul qilishlari kerak.

Muammoli Vaziyatlar Yaratish: O'qituvchi muammoli vaziyatlar yaratishi kerak, bu o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni fikrlashga undaydi.

Ijodiy Yondashuv: O'quvchilar ijodiy yondashuv orqali muammolarni hal qilishlari kerak. Bu ularning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Refleksiya: O'quvchilar o'z faoliyatini tahlil qilishlari va xatolaridan o'rganishlari kerak.

Afzalliklari

O'quvchilarning Fikrlashini Rivojlantiradi: Muammoli o'qitish texnologiyasi o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bilimlarni Mustahkamlaydi: O'quvchilar muammolarni hal qilish jarayonida bilimlarini mustahkamlaydi va yangi bilimlarni o'zlashtiradi.

Mustaqil O'rganishga Rag'batlantiradi: O'quvchilar mustaqil tadqiqotlar o'tkazish va muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Faollikni Oshiradi: Muammoli o'qitish o'quvchilarning darslarda faol ishtirok etishiga yordam beradi va ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Amalga Oshirish Usullari

Muammoli Savollar Berish: O'qituvchi o'quvchilarga muammoli savollar berishi va ularni muammolarni hal qilishga undashi kerak.

Gruppalariga Bo'lish: O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, ularga muammolarni hal qilish topshirig'ini berish.

Tadqiqot Ishlari: O'quvchilarni mustaqil tadqiqot ishlariga jalb qilish va ularning natijalarini tahlil qilish.

Muhokamalar O'tkazish: O'quvchilarning muammolarni hal qilish jarayonidagi fikrlarini muhokama qilish va baholash.

Muammoli o'qitish deganda o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatlarni qo'yish va ularni echish bo'yicha talabalarni faol mustaqil faoliyatini ko'zda tutadigan va natijada ijodiy ravishda kasbiy (yoki predmet) bilim, ko'nikma va malaka (BKM)lari ijodiy egallangan hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish tushuniladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasining maqsadi ta'lim oluvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarni egallatish, ular tomonidan mustaqil faoliyat usullarini o'zlashtirish, ularning bilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

T.V.Kudryavtsev muammoli o'qitish mohiyatini quyidagida ko'radi: muammoli o'qitish talabalar oldida muammoli vaziyatlarni yaratishda, talabalarning mustaqilligida va o'qituvchining umumiy rahbarligi ostida, maktab o'quvchilarining o'qituvchi bilan birgalikda faoliyati borishida bu vaziyatlarni anglash, qabul qilish va hal qilishda xulosalanadi. Biroq, bunday aniqlash muammoli o'qitishni tushunishning butun hajmini aks ettirmaydi. Bundan tashqari, ba'zan o'qitishning tadqiqot usullari guruhi ham muammoli o'qitish deb yuritiladi. Ehtimol, bu erda "muammoli" so'zini tadqiqot ma'nosida tushunish ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchisi tomonidan qo'yilgan muammoni hal etish jarayonida talaba ma'lumotlarni qayta ishlabgina qolmaydi, balki ularni o'zlashtiradi va o'zi uchun yangi bilimlarni kashf etadi. Muammoli o'qitishning asosiy mohiyati hamda afzalligi shundaki, o'qituvchi ta'lim usullari (muammoli savollar qo'yish, gipotezalarni ilgari surish va ularni tasdiqlash yoki rad etish, talabalarga "yordam so'rab" murojaat etish va boshqalar) orqali ularni ijodiy fikrlashga hamda munozaraga chorlaydi.

Muammoli metodlar – fandan muammoli vaziyatlar yaratishga, talabalarning maxsus fanlardan bilimlarini faollashtirishni talab etadigan, murakkab masalalarni izlash va echishga, tahlilga, alohida faktlar ortida hodisa va qonunlarni ko'ra olishlariga asoslangan metodlardir.

Hozirgi zamon psixologiyasi va didaktikasi shunga asoslanadiki, fikr yuritish jarayonining boshlang'ich momenti, odatda, muammoli vaziyat bo'ladi. Insonda biror narsani tushunishga talab paydo bo'lganidagina u fikr yurita boshlaydi.

Muammoli vaziyat – muayyan qiyinchilik sabab yuzaga kelgan holat bo'lib, uni bartaraf etish yo'li topilishi kerak. Vazifa engil hal etiladigan yoki aksincha hal etilishi mumkin bo'lmagan paytda muammoli vaziyat vujudga kelmaydi.

Muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchi avvalo muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo'yadi, masalalarni, eksperimental topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni echishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarining to'g'riligini tasdiqlaydi. Talabalar oldingi bilim va tajribalariga asoslanib muammoli vaziyatni hal qilish yo'llari to'g'risida o'ylaydilar hamda takliflar kiritadilar. Oldin olgan bilimlarini umumlashtirib, hodisalarning sabablarini aniqlagan holda, ularning kelib chiqishini tushuntiradi, muammoli vaziyatni echishning eng oqilona variantini tanlaydilar. Bu metod ta'lim oluvchilarning bilim qiziqishini oshiribgina qolmay, ularda fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Muammoli vaziyatni o'rganish mavzuga oid materialni tahlil qilishda talaba shu vaziyatga o'zi kirishishi, uni tushunishi, baholay olishi kerak. Ushbu holatda u qanday muammo borligi va qo'yilayotgan muammoning mohiyati nimada ekanini aniqlashi lozim, muammoni hal etishdagi o'zining roli va bunda o'zini qanday tutishi kerakligini

belgilashi kerak. Muammoli vaziyatlar metodi tayyorlov, tanishuv, tahlil va yakuniy qaror qabul qilish bosqichlariga bo'linadi. Tayyorlov bosqichida o'qituvchi maqsadni belgilab, kerakli vaziyatni rejasini ishlab chiqadi, ya'ni:

a) beriladigan misol nazariy kursni mantiqan davom ettirishi va talabalarning kelgusidagi kasbiy ehtiyojlariga muvofiq bo'lishi kerak;

b) qo'yilayotgan muammo murakkabligi ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari darajasida bo'lishini hisobga olish kerak, ya'ni talaba bir tomondan vazifani bajara olsin, ikkinchi tomondan uni bajarish ishtiyoqi hamda muvaffaqiyat hissi paydo bo'lsin;

v) talabalarga muammo ustida ishlash bo'yicha yo'l-yo'riqlar berilishi kerak. Tanishuv bosqichida talabalar muammoni real, ya'ni jonli muhokama qilishga jalb etiladi. O'qituvchi ta'lim oluvchilarning ma'lum sohadagi bilim, ko'nikmalarini hisobga olgan holda bajariladigan, ishning umumiy izohini belgilaydi. Individual ravishda yoki butun guruhni qo'yilayotgan muammoning mazmuni bilan tanishtiradi. Tahlil va yakuniy qaror qabul qilish bosqichida muammoli vaziyatni tahlil etish guruhiy ish bo'lgani uchun muammo ochiq bahs-munozara shaklida hal etilgani ma'qul. Muhimi, talabalardagi faollikni rivojlantirish va muammoni hal etish bo'yicha boshqalar kiritgan taklifga xolis baho berish. Bu esa ishlab chiqarishda yuzaga keladigan vaziyatlarni tahlil etish ko'nikmasining takomillashuviga va mustaqil ravishda qaror qabul qila olish qobiliyatini rivojlantirishga imkon yaratadi. Barcha tahlillardan so'ng yakuniy xulosa chiqaradilar.

Xulosa

Muammoli o'qitish texnologiyasi zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol, mustaqil va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiya o'quvchilarning muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshiradi, ilmiy-tadqiqot ishlariga qiziqishini oshiradi va mustaqil o'rganish jarayonini rag'batlantiradi. O'qituvchilar muammoli o'qitish metodlarini qo'llab, ta'lim sifatini oshirishlari va o'quvchilarning qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlariga yordam berishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Karimov, "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat", Toshkent, O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2015.
2. Sh. R. Usmonov, "Ta'limda innovatsion texnologiyalar", Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2018.
3. M. T. Xodjayev, "Muammoli ta'lim asoslari", Toshkent, "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2016.
4. Shikarov, T. T. (2021). Acmeological approach to the development of the activities of future teachers. *European research*, 1(38), 75-77.

5. Tavakkalovich, S. T., Tohirovich, R. E., & Dilmurodovna, R. D. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA AKMEOLOGIK YONDASHUVLAR. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(1), 352-356.
6. Shikarov, T. T. (2022). Akmeologik yondashuvlar asosida o'qituvchi kasbiy mahoratini oshirish. *Science and Education*, 3(4), 1081-1086.
7. Шиکارов, Т. Т. (2021). АКМЕОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *European research*, (1 (38)), 75-77.
8. Tavakalovich, S. T. (2024). WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN PEDAGOGICAL ACTIVITY. *МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА*, 2(2), 398-402.
9. Tavakalovich, S. T. (2024). USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 283-286.
10. Ikromova, S. A. (2024). BASICS OF PSYCHOLOGICAL SERVICES. *PEDAGOG*, 7(5), 670-676.
11. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL MANAGEMENT IN EDUCATION. *PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI*, 2(4), 40-46.
12. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT ASOSLARI. *PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI*, 2(4), 54-60.
13. Akbarovna, I. S. (2024). STAGES OF PSYCHOLOGICAL CONSULTATION. *PEDAGOG*, 7(4), 328-334.
14. Икромова, С. А. (2023). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИММУНИТЕТА К ДЕСТРУКТИВНЫМ ИДЕЯМ У ПОДРОСТКОВ. *European research*, (3 (81)), 47-49.
15. Ikromova, S. (2024). PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA SHAKLLARI VA MAZMUNI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 918-924.
16. Ikromova, S. (2024). FORMS AND CONTENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 933-939.
17. Akbarovna, I. S. (2024). MASTERING THE BASICS OF PEDAGOGICAL SKILLS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 882-887.
18. Akbarovna, I. S. (2024). PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARINI O'ZLASHTIRISH. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 888-893.
19. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF FORMING MATHEMATICAL CONCEPTS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 912-917.
20. Akbarovna, I. S. (2024). МАТЕМАТИК TUSHUNCHALARNI SHAKLLANISHINING AHAMIYATI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 900-905.

21. Икромова, С. А. (2024). ЭТАПЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОНСУЛЬТАЦИИ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 875-881.
22. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK MASLAHAT BOSQICHLARI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 860-866.
23. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI MASHG 'ULOTLAR. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 4, pp. 27-32).
24. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIM MASALASI. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 4, pp. 21-26).
25. Jalolov, T. S. (2024). ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL DATA USING SPSS PROGRAM. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(4), 477-482.
26. Jalolov, T. S. (2024). ИЗУЧЕНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКИХ БИБЛИОТЕК PYTHON: ПОДРОБНОЕ РУКОВОДСТВО. *MASTERS*, 2(5), 48-54.
27. Jalolov, T. S. (2024). ВАЖНОСТЬ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ПРОГРАММИРОВАНИИ. *MASTERS*, 2(5), 55-61.
28. Jalolov, T. S. (2024). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ С ПОМОЩЬЮ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. *MASTERS*, 2(5), 40-47.
29. Sadriddinovich, J. T. (2024). BASICS OF PSYCHOLOGICAL SERVICE. *PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI*, 2(4), 61-67.
30. Jalolov, T. S. (2024). SPSS DASTURI FOYDALANISHDA PSIXOLOGIK MA'LUMOTLARNI TAHLILI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(4), 463-469.
31. Жалолов, Т. (2023). Использование математических методов в психологических данных (с использованием программного обеспечения SPSS). in *Library*, 4(4), 359-363.
32. JALOLOV, T., FAYZIEV, S., & USMONOV, A. "AQLLI ISSIQXONA" BOSHQARISH TIZIMINI MODELLASHTIRISH VA TADQIQ QILISH.